

Raqamlarda Madaniy O‘ziga Xoslik Va Umumiy Jihatlar

Ermo‘minova Maftuna G‘ofurovna¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamlar asosida madaniy o‘ziga xoslik va umumiy jihatlarni aniqlash, xalqlar madaniyatlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlarni tushunishga yordam beradi. Har bir madaniyatning tarixiy, diniy va ijtimoiy kontekstida raqamlarga turlicha yondashadi, lekin ba’zi raqamlar ko‘plab madaniyatlarda umumiy ma’no va ramzlarni ifodalaydi.

Kalit so‘zlar: raqamlar, din, ramz, ma’no, madaniyat, o‘xshashlik

Har bir madaniyat raqamlarga o‘ziga xos ma’nolar beradi va bu ma’nolar jamiyatning qadriyatlari va e’tiqodlari va turmush tarzini ifodalaydi. Biz bu raqamlardan ba’zilarini madaniy o‘ziga xoslik va umumiy jihatlarini ko‘rib chiqamiz.

40 raqami dunyoning turli madaniyatlarida va tillarida turlicha lingvomadaniy belgilarni ifodalaydi. Bu raqam ko‘plab madaniyatlarda o‘ziga xos ramziy ma’nolarga ega va ko‘plab tarixiy va diniy an’analarda muhim ahamiyatga ega. Masalan, 40 yosh Islomda diniy va ma’naviy yuksalishning alomati sifatida qabul qilinadi. O‘limdan keyin, marhumni eslash va yod qilishda 40 kunlik marosim o‘tkazish odatiga amal qilinadi. 40 raqami Islom dinining muqaddas kitobi Qur’onda bor. 40 yoshida Payg‘ambarlik Hazrati Muhammad (s.s.v) ga berilgan. Ayollarda homiladorlik 40 hafta davom etishi bu raqamning muqaddasligini oshirdi.

Yevropa madaniyatida 40 raqami tarixiy va diniy ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘plab mifalogik va diniy tushunchalar bilan bog‘liq. Iso Masihning 40 kunlik sinovdan o‘tishi bilan bog‘liq.

Hindistonda 40 raqami ba’zan ma’naviy o‘sish tahorat bilan bog‘lanadi, masalan, 40 kunlik topshiriqlar va tahorat davrlari hind diniy an’analarda ko‘plab marosimlar va tajribalar uchun ishlatiladi. 40 kun davomida odamlar ma’naviy o‘zgarishga erishishga intilishadi.

Yaponiyada 40 raqami omadsizlik bilan bog‘lanadi, 40 yoshga yetgan insonlar yapon madaniyatida qarish va o‘zgarishni ifodalaydi.

Afrika madaniyatlarida 40 raqami ko‘pincha pishib yetilish, to‘liq tajriba bilan bog‘lanadi. Misol uchun, ba’zi afrikalik qabilalarda 40 yoshga yetgan erkaklar yoki ayollarni, dunyoqarashi va tajribasi rivojlangan, hurmatga sazovor kishilar sifatida ko‘rishadi.

40 raqami dunyoning ko‘plab madaniyatlari va e’tqod tizimlarida, ruhiy o‘sish, sabr-toqat, sinov, kamolot va poklanish jarayonlarini anglatadi. Bu raqamning diniy, madaniy, ijtimoiy ma’nolari juda keng bo‘lib, turli jamiyatlar tomonidan turli yo‘llar bilan nishonlanadi.

13 raqami turli madaniyatlarda turli xil ma’nolarga ega. Ba’zi jamiyatlarda bu raqam omadsiz deb hisoblansa-da, boshqalar uni muqaddas va baxtli raqam hisoblashlari mumkin. Bir necha madaniyatlarda 13 raqamining ma’nolari:

G‘arb madaniyatida 13 raqami omadsiz raqam sifatida ko‘riladi. Buning asosiy sababi, xristian e’tiqodida ko‘plab nazariyalar mavjud. Shulardan biriga ko‘ra, bu Isoning “Oxirgi taomi” da 13 kishi (Iso va uning 12 favoriyları) bo‘lganligi va Rim tomonidan hibsga olinishidan oldin shogirdlari bilan qilgan oxirgi taomi sifatida tanilgan. Bu ishonch Xristian dunyosida kuchliligidan, ba’zi insonlar 12 kishi bilan bir stolga o‘tirmaydi, ba’zi mehmonxonalarda 13- qavat, 13- raqamli xonalar ham yo‘q ekan.

¹ maftunagofurovna10061992@gmail.com



Islom madaniyatida 13 raqami alohida salbiy ma'noga ega emas. 13 raqamiga alohida e'tibor berilmaydi.

13 raqami tarix davomida turli xil ma'nolarga ega bo'lgan va madaniy jihatdan turli yo'llar bilan talqin qilingan. Garchi bu odatda omadsiz deb hisoblansa-da, har bir madaniyatning o'ziga xos istiqbollari bor.

Turli xalqlarda 4 raqami ko 'pincha lingvistik va madaniy ma'nolarga ega. Bu raqam ayrim madaniyatlarda pozitiv, boshqalarda esa negativ ma'nolar bilan bog'langan.

Sharq madaniyatlarida, xususan, Yaponiya, Xitoy va Koreada 4 raqami salbiy ma'no bilan ifodalanadi. Sababi, bu tillarda "to'rt" so'zining talaffuzi o'lim ma'nosini bildiruvchi so'zga yaqin.

Islom madaniyatida 4 raqami ijobiy ma'nolar bilan bog'lanadi. Masalan, 4 farishta, 4 asosiy mazhab, 4 fasl, 4 taraf va 4 unsur haqida ta'riflar mavjud.

G'arb madaniyatlarida 4 raqami ko'proq barqarorlik va to'liqlikni bildiradi. Masalan, 4 element nazariyasi (qadimgi Yunon falsafasida dunyo to'rtta asosiy unsurdan ya'ni yer, suv, havo va olovdan iborat deb qaralgan).

Xulosa qilib aytadigan bo 'lsak, raqamlar madaniyat va tiliga qarab turli xil ma'no va konntatsiyalarni anglatadi. Bu lingvomadaniy jihatlar madaniyatlarning raqamlarga bergan ramziy ahamiyatini yanada chuqqurroq tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Abduazizov A. A. (2007). Til va tafakkur. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Jo'raev N. (2011). O'zbek tilida raqamlar va ularning semantik xususiyatlari. Toshkent: Fan.
3. Nematova D. (2020). "O'zbek xalq og'zaki ijodida raqamlarning lingvomadaniy funksiyasi" // Filologiya masalalari, №2, 45–51-betlar.
4. Turdieva M. (2019). "O'zbek tilidagi maqollarda raqamlarning qo'llanishi" // O'zbek tili va adabiyoti, №3, 67–72-betlar.
5. Karimov M. (2018). Etno-lingvistika asoslari. Toshkent: "Yangi asr avlod".
6. Yo'ldoshev M. (2005). O'zbek tili stilistikasi. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti.
7. Urinboyeva G. (2021). "O'zbek tilida son birliklarining milliy xususiyatlari" // Til va adabiyot ta'limi, №4.
8. Xudoyberanova D. (2015). "O'zbek tilidagi raqamlar va ularning metaforik qo'llanilishi" // Filologiya va tillarni o'qitish, №1.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2006). 5 jildlik. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi".
10. Alieva Z. (2020). "Raqamlarning ramziy talqini: o'zbek va turkiy tillar solishtirmasi" // Turkologiya muammolari, №2, 33–40-betlar.

